

ANTROPOTSENTRIZM VA SHEVALARNING O'RGANILISHI

Kenjaboyeva Zuhra

ADU folklorshunoslik va dialektologiya mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: Ma'murjon Saidxonov

filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda yashovchi tojiklar muloqotida o'zbek tilining ta'siri natijasida fonetik, leksik va ayrim grammatik o'zgarishlar xususida ma'lumotlar bayon etilgan bo'lib, uning ildizi ikki xalqning qadimdan qo'shni bo'lib yashsi va ikki xalq muomala tillarining o'zaro assimilyativ munosabatda ekani tavsiflangan.

Kalit so'zlar: yaqin qo'shnichilik, til aloqalari, turkiy tillar, fors-tojik tilli ,fonetik-morfologik sathlar.

Borliq va uni idrok etishning moddiy ifodasi til orqali namoyon bo'ladi. Insoniyat paydo bo'lgandan buyon hozirgacha olamni til yordamida anglaymiz, tasavvur qilamiz, ifoda etamiz. Bu esa insonning lisoniy ongida olamning manzarasini shakllantiradi. Til ilmiga birinchilardan bo'lib "olamning lisoniy manzarasi" tushunchasini olib kirgan Y.L.Vaysgerber "til o'z egasiga boshqa tillardagidan farqli bo'lgan dunyoni umumiy ko'rish tarzini ato etishini, ona tili va har bir insonning ruhiy shakllanishi o'zaro chambarchas bog'liqligini va shuning uchun ham tilshunoslik tillarni xalqlar madaniyatining ko'zgusi sifatida o'rganmog'i lozim " ekanligini alohida uqtirdi". .[7, 120.]

Ma'lum mintaqada, hududda yashovchi aholi ham o'z tarixi va an'analari asosida olamni o'zaro farqli ravishda lisoniy ifodalaydiki, bu lahja yoki shevalar deb ataladi. Bu o'sha xalq, millatning tarixiy, etnografik xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. O'zbeklar qadimdan tojiklar bilan qo'shnichilik asosida birga yashab kelganlar. Qo'shnichilik natijasida bu ikki xalq bugungi kunda bir-birlarining hudularida o'troq holda yashab, urf-odatlari, an'ana va udumlari, turmush tarzi o'zaro qo'shilib, qorishib ketgan. Bugunda mamlakatimizning qator viloyatlarida tojik millatiga mansub o'zbek fuqarolari barcha millat vakillari bilan teng holda yashab kelmoqdalar. Jumladan, Farg'ona vodiysida o'zbek millatiga mansub aholi 8,0 mln bo'lib, ularning ulushi 90,2 foizga teng kelsa, tojik millati vakillari 463,7 ming kishini, vodiylar aholisining 5,2 foizini tashkil qidadi. (2016-yil.)

"Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvligini mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi"^[1]. Bu borada, ayniqsa, 2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-son "Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni^[2] e'tiborga loyiq.

Markaziy Osiyoning yurak qismida joylashgan O'zbekiston va Tojikiston geografik jihatdan qo'shni, tarixiy, madaniy, til va diniy jihatdan chuqur o'zaro bog'liq ikki davlatdir. O'zbek va tojik xalqlarining tarixiy taqdiri ming yillar davomida o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib kelgan. Ularning etnogenezida qadimiy Sog'd, Baktriya,

Xorazm madaniyatlari, so'ngra Movarounnahr hududida rivoj topgan fors-tojik va turkiy-chig'atoy madaniyatlari o'zaro singib ketgan. O'zbek tili turkiy tillar oilasiga, tojik tili esa hind -yevropa tillar oilasining eroniy guruhiga kiradi. O'zbek xalqining tojik xalqi bilan ko'p asrlik ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy aloqalari faqatgina jamiyat hayoti uchungina ta'sir qilib qolmasdan, balki uning til boyligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, chunki bu ikki xalqning ma'naviyati va madaniyati shunchalik yaqinki, ular birlashib ketgan. O'zbek va tojik xalqlari o'rtasidagi bu o'zaro munosabatlar haqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday deydi: "O'zbek va tojik xalqlari bir daraxtning ikki shoxi, bir daryoning ikki irmog'iga o'xshaydi. Bizning muqaddas dinimiz, yerimiz va suvimiz bir. Quvonch-u tashvishlarimiz, taqdirimiz mushtarak. Ajdodlarimizning ezgu an'alarini davom ettirib, xalqlarimiz do'stligini mustahkamlashimiz va asrab -avaylashimiz kerak"[3].

O'zbek va tojik ikki tilliligi Tojikistonda yashovchi mahalliy aholi uchungina xos bo'lmay, u O'zbekistonning turli hududlarida yashovchi mahalliy aholi uchun ham xosdir. Buning tarixiy ildizlari uzoq o'tmishga – XI asrga borib taqaladi. Mashhur qomusiy olim Mahmud Koshg'ariy turkiy tillarni dastlab ikki guruhga ajratadi. Ularning birini sof turkiy tillar, boshqasini sof bo'lmagan turkiy tillar deb ataydi. Sof bo'lmagan turkiy tilga Sharqiy Turkistonning Janubiy hududlari, Chuv hamda Talas vodiylari aholisining tilini kiritadi. Bu hududlarda so'g'diylar qaramog'idagi shaharlar aholisi yashagan. Ular ikki tilda gaplashar edilar. Sof turkiy bo'lmagan til egalari Bolosog'un, Talas (Avliyoota, hozirgi Janbul shahri) va Oqshahar (Isfijob, Sayram) shaharlari aholisi bo'lib, ular so'g'd (eroniy) va turk tillarida barobar so'zlasha olganlar.[4, 39.]

O'zbek va tojik ikki tilliliginiing ta'siri natijasi bo'lsa kerak, o'zbek tili lug'at tarkibining o'n foizdan ortiqrog'ini tojik tilidan o'zlashgan lug'aviy birliklar tashkil qiladi. Tojik tilining lug'at tarkibida ham o'zbek tilidan o'zlashgan lug'aviy birliklar miqdori kam emas. Bulardan tashqari, o'zbek tilining morfem va so'z yasalishi tizimlarida ham tojik tilning samarali ta'sirini sezish qiyin emas. Tojik tiliga qarashli grammatik ko'rsatkichlar o'zbek tilining so'z va shakl yasovchi vositalari sifatida faol qatnashadi. O'zbek va tojik ikki tilliligi O'zbekiston va Tojikiston Respublikalari aholisi orasida hamon mavjud. Samarqand, Buxoro, Surxondaryo viloyatlari, Farg'ona vodiysining ba'zi tumanlari aholisi hozir ham o'zbek va tojik tillarida bir xil so'zlasha oladi. Tojikistonning So'g'd, Qo'rg'ontepa viloyatlari, Dushanbe shahrining atrof tumanlarida istiqomat qiluvchi aholi ham tojik va o'zbek tillarida gaplasha oladi. Ilmiy manbalarda e'tirof etilishiga qaraganda, tojik (eroniy) tilining o'zbek (turkiy) tiliga ta'siri ikki bosqich (davr)ni o'z ichiga oladi. Bu ta'sirning birinchi bosqichi o'zbek tilining xalq tili maqomida shakllanishigacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Bu davrda o'zbek (turkiy) tili O'rta Osiyo va O'zbekiston hududidagi eroniy qabila va xalq (so'g'dlar, xorazmiylar, toxarlar, saklar, massagetlar va h.)larning tillaridan bahramand bo'lgan.

Tojik (eroniy) tilining o'zbek (turkiy) tiliga ta'siri bilan bog'liq ikkinchi bosqich somoniylar davriga to'g'ri keladi. Ba davrda o'zbek (turkiy) tili tojik xalq va adabiy tilidan, shuningdek, uning shevalari lug'aviy birliklaridan foydalangan. XV-XVI asrlarga kelib, tojik tili Buxoro, Qo'qon xonliklarining rasmiylashgan davlat tili sifatida shuhrat topgan. Bu xonliklarning hujjat ishlari ana shu tilda rasmiylashtirilgan. O'zbek va tojik tillari asosida vujudga kelgan ikki tillilik yozma adabiyot – badiiy asarlarda ham o'z aksini topgan. Qarshi shahrida topilgan va taxminan temuriylar davrida tarjima qilingan «Qo'rg'on» tafsirida ham bu hol ko'zga tashlanadi. O'zbek va tojik ikki

tilliligiga doir dalillar, ayniqsa, badiiy adabiyotda yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Bu jarayonni badiiy adabiyotning ham yozma, ham og'zaki shakllarida bir xil me'yorda uchratish mumkin. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy singari mumtoz adiblarimizning ijodida o'zbek va tojik ikki tilliligining yorqin namunalari berilgan. Bu jarayon an'anaviy tus olib, keyinchalik Gulxaniy, Maxmur, Muqimiy, Sadridin Ayniy, Boqi Rahimzoda, Mirzo Tursunzoda, G'afur G'ulom, O'lmas Jamol kabi o'zbek va tojik shoirlarining ijodini bezagan. Xullas, o'zbek va tojik ikki tilliligi o'zbek va tojik adabiy aloqalarining muhim shakli sifatida yuksak qimmatga ega.[4, 41.]

Tojik tilining har jihatdan o'zbek tiliga ta'siri bo'lganidek, o'zbek tilining ham tojik tiliga fonetik, leksik-semantik, morfologik, sintaktik ta'siri bor. O'zbek va tojik tillarining fonologik (fonemalar) tizimida ham ayrim farqlar ko'zga tashlanadi. Sezilarli farq bu ikki tilning unli fonemalari tizimida mavjud. O'zbek tilining unli fonemalar tizimi olti fonologik birlikdan tashkil topgan: [i], [u], [o'], [a], [o], [e]. Tojik tilning unli fonemalar tizimi ham oltita fonologik birlikdan iborat: [a], [ə], [и//й], [o], [y], [ȳ]. Tojik tilida i fonemasi ikki ko'rinishda qo'llanishi bilan farq qiladi - и//й, ya'ni odatdagi и va cho'ziq й. Har ikki tilda ham unli fonemalar lablarning ishtiroki, og'izning ochilish darajasi va tilning old va orqa qismi kabi uch xususiyat asosida tasnif qilinadi. Tojik tilining undosh fonemalar tizimida [q] fonemasi bo'lmagan, bu fonema turkiy tillarga xos. Bu fonema *qaburg'a, qabchuiq, qovoq, qayroq, qaymoq, qaychi* va h.k. so'zlarning tojik tiliga o'zlashishi va uning lug'at tarkibiga singishi natijasida tojik tilining undoshlar tizimida [q] undoshi paydo bo'ldi. Shimoliy tojik shevalarida tojik adabiy tilidagi sirg'aluvchi (j)ning hozirgi o'zbek shevalaridek, portlovchi(j)dek talaffuz etilishi, B.S.Rastorguyevaning ma'lumotiga ko'ra *jurnal, jolo(do'l), mija(kiprik)* so'zlaridagi mazkur tovush tojik adabiy tilida sirg'aluvchi (j) kabi talaffuz qilinsa, Chustdan boshqa shimoliy tojik shevalarida portlovchi (j)ch kabi talaffuz qilinadi.[5, 43.]

O'zbek tilining tojik tiliga sezilarli darajada morfologik ta'siri ham bor. Tojik tilida o'zbekcha qo'shimchalar bor. Bulardan eng ko'p ishlatiladigani -chi qo'shimchasi: *анбор(ombor)-анборчӣ, дурӯғ(yolg'on)-дурӯғчӣ(yolg'onchi), андава(andava)-андавачӣ(andavachi)*. [6, 24.] Tojik tilida ko'p uchraydigan o'zbekcha qo'shimchalardan yana biri -cha qo'shimchasi: *дез(qozon)-дегча(qozoncha), духтар(qiz)-духтарча(qizcha), бел(kurak)-белча(kurakcha), дарyo-daryocha*. O'zbekcha -loq qo'shimchasi tojik tilida -loh shaklida uchraydi: *санг(tosh)-санглоh(toshloq), ро'st-ро'stloh*. Tojik shevalarida o'zbek tili ta'sirida old qo'shimchalar ort qo'shimchaga aylangan, masalan -da ma'nosida tojik adabiy tilida dar old qo'shimchasi ishlatiladi: *дар бозор - bozorda, дар хона-иуда, дар китоб-kitobda, дар кӯча-ko'chada*. Tojik tilining Chust shevalarida dar o'rnida ort ko'makchi sifatida *анда* qo'llanadi: *бозоранда-bozorda, хонанда-иуда, китобанда-kitobda, кӯчанда-ko'chada*.

Tojik adabiy tilida o'zbekcha -ga ma'nosida qo'llanadigan -ba old ko'makchisi bor, ammo bu ko'makchi Chust shevasida ort ko'makchi sifatida ishlatiladi: *бозорба - bozorga, хонаба-иуга, хавлиба-hovliga, вайба-иуга, амакамба-атакимга, манба-тenga*. Yana tojik shevalarida "bilan" ma'nosida keluvchi "кати" ort ko'makchisi ishlatiladi: *бивем кати-buvim bilan, шумо кати -siz bilan, аром кати-оуим bilan, даст кати-қо'l bilan*. Tojik tilining Chust shevasida o'zbekcha ko'makchilar va kelishiklar ham ishlatiladi: "*uchun*" -*Хамир қадан учун сеҳо дарқор (Xamir qilish uchun nimalar*

kerak). Вай манки гапзадан учун сеҳо накад (U мен bilan gaplashish uchun nimalar qilmadi).

“dak”- Вай акошдак не, сал характераш вазнинтар (U akasidak mas, xarakteri sal og'irroq). Тоҷик забонаша Озодбек мандак намдонад (Tojik tilini Ozodbek mendak bilmaydi).

Xulosa qilib aytganda, o'zbek va tojik tillari o'rtasidagi lingvistik aloqalar Markaziy Osiyoda asrlar davomida shakllangan tarixiy qo'shnihilik, madaniy yaqinlik va barqaror ikki tillilik muhiti bilan bevosita bog'liqdir. Genetik jihatdan turli til oilalariga mansub bo'lishiga qaramay, ushbu tillar uzoq muddatli til kontakti natijasida bir-biriga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek-tojik til aloqalari eng avvalo leksik qatlamda faol namoyon bo'lib, kundalik nutq, madaniy-maishiy va ilmiy-adabiy sohalarda o'zaro so'z almashinuvi jarayoni izchil davom etgan. Shu bilan birga, chegaradosh hududlarda shakllangan sheva va lahjalarda fonetik hamda intonatsion yaqinlashuv holatlari kuzatiladi. Grammatik darajada ta'sir nisbatan cheklangan bo'lsa-da, sintaktik konstruksiyalar va nutq modellari doirasida ayrim umumiyliklar aniqlanadi. O'zbek va tojik tillari o'rtasidagi aloqalar tilshunoslikda til kontakti va ikki tillilik nazariyalari doirasida muhim ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ular mintaqaviy til taraqqiyoti va madaniy integratsiya jarayonlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Республика байналмилал маданият маркази ташкил этилганининг 25 йиллигига бағишланган учрашувдаги нутқи // “Халқ сўзи”, 2017 йил 24 январь.
2. Ozbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 15.11. 2019. PF-5876-son.
3. Mirziyoyev.Sh. ”O'zbekiston va Tojikiston rahbarlarining do'stlik, yaxshi qo'shnihilik va tojik-o'zbek strategik hamkorligining yangi sahifasining ochilishi” mavzusidagi ilmiy anjumandagi fikri. 2020-yil.14-sentyabr.
4. Zakirov M.T., Alimova Z.V. O'zbek va tojik lisoniy aloqasi asoslari. Farg'ona; 2024. 152-bet.
5. Раҳмонбердиев.К Ўзбек тил контактлари”. Тошкент, “Fan. 1989.92-.bet.
6. Расторгуева Б.С. Очерки по таджикской диалектологии. Вып. 2. 1952. с.24.
7. Vaysgerber Y. L. Родной язык и формирование духа. – М.: Едиториал УРСС. 2004. 173.